



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish



2017 yil yanvar-dekabr oylarida

Raqamlar: (dastlabki ma'lumot)

- ❖ Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi aholi soni - 2889,0 ming. so'm
- ❖ Qishloq joylarida xizmatlarning ulushi joylar - 28,2%
- ❖ Bozor xizmatlari hajmi - 5364,1 mlrd. so'm.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida bozor xizmatlariga 5364,1 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 103,6% ni, shu jumladan qishloq joylarda 1511,8 mlrd. so'mni tashkil etdi (99,3%). Viloyatda xizmat ko'rsatish bo'yicha eng katta ulushni savdo 32,9% (1765,9 mlrd. so'm) va transport xizmatlari 28,7% (1539,7 mlrd. so'm) tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat turlarining jamiga nisbatan ulushi




Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari

2017 yil yanvar-dekabr, %


Hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim xizmatlari bo'yicha 132%, moliyaviy xizmatlar bo'yicha - 121,2%, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha - 114,5%, sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha -106,5% ga erishildi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmini oshirish, ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida qabul qilingan chora-tadbirlar (zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv o'qitish uslublarini joriy etish, oliy o'quv yurtlariga shartnomalar asosida qo'shimcha ravishda yuqori kurslarga qabul qilish) ta'sir ko'rsatdi.

Bank tizimining barqarorligini ta'minlash, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni kengaytirish, valyuta siyosatini erkinlashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarining davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning 122,7 foizga o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.



Jami xizmatlarga nisbatan tashkilot turlarining ulushi, %



Yirik korxonalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1348,8 mlrd. so'm, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 118,3% ni; kichik biznes va mikrofirmalar 901,1 mlrd. so'm (111,1%)ni; yakka tartibdagi tadbirkorlik sohasida – 3114,2 mlrd. so'm (96,5%) ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining hududlar bo'yicha ulushi

(2017 yil yanvar-dekabr)


| | Miqdori, mlrd so'm | O'sish sur'ati o'tgan yil, % da |
|------------------------------|---------------------------|--|
| Viloyat bo'yicha jami | 5364,1 | 103,6 |
| shu jumladan : | | |
| Buxoro sh. | 3097,5 | 105,6 |
| Kogon sh. | 215,3 | 101,4 |
| Olot tumani | 140,7 | 100,5 |
| Buxoro tumani | 203,0 | 100,9 |
| Vobkent tumani | 180,6 | 101,2 |
| Gijduvon tumani | 575,9 | 100,9 |
| Kogon tumani | 93,1 | 100,9 |
| Qorako'l tumani | 164,5 | 100,4 |
| Qorovulbozor tumani | 100,6 | 103,4 |
| Peshko' tumani | 128,7 | 101,5 |
| Romitan tumani | 177,9 | 100,7 |
| Jondor tumani | 148,2 | 100,5 |
| Shofirkon tumani | 138,1 | 101,2 |

Hududlarning eng yuqori o'sish sur'atlarini Buxoro (105,6%), Korovulbozor (103,4%), Peshko' tumani (101,5%) tashkil etadi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat hududlarining jami xizmatlardagi ulushi, %


Har bir hudud mamlakat iqtisodiyotining territorial izolyatsiyalangan qismi hisoblanadi. Har bir hudud o'zining ixtisoslashuvi, iqtisodiyotni integratsiyalashgan rivojlantirish va uni boshqarish imkoniyatlari bilan farq qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda eng yuqori o'sish sur'atlarni Buxoro shahar (57,7%), Gijduvon tuman (10,7%), Kogon shahar (4,0%), Buxoro tuman (3,8%) ni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi eng kichik o'sish sur'atlarini Peshko' (2,4%), Qorovulbozor (1,9%) va Kogon (1,7%) tumanlari tashkil etadi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2017 yil uchun, ming. so'm



O'rtacha jon boshiga ko'rsatiladigan xizmatlar sohasini rivojlantirishda aholi soni ko'rsatkichi muhim ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Kogon shahri, Qorovulbozor va Kogon tumanlarida aholi soni nisbatan kam bo'lganligi bois o'rtacha jon boshiga xizmatlar ko'rsatgichi Shofirkon, Buxoro va Jondor tumanlariga nisbatan aholi gavjum joylashgani sababli ancha yuqori ko'rinadi.

2017 yilga transport sohasi ko'rsatkichlari.

Yuk tashish. 2017-yilda avtomobil transporti orqali 68,0 mln. tonna yuk tashildi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 104,2% ni tashkil etdi.

Avtomobil transportining **yuk aylanmasi** 1764,5 mln. tonna. km ni, va o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 0,2%ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti orqali **Yo'lovchi tashish** 278,4 mln.kishini, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9 %ni tashkil etdi.

O'tgan yilga nisbatan **yo'lovchi aylanmasining** o'sish sur'ati 2,5% ni ya'ni 9512,7 mln. kishi.kmni tashkil etdi.

| | 2017 yil | O'sish sur'ati o'tgan yil, %da |
|----------------------------------|----------|--------------------------------|
| | | |
| Yuklarni tashish mln.tn | 68,0 | 104,2 |
| | | |
| Yuk aylanmasi mln.tn. km | 1764,5 | 100,2 |
| | | |
| Yo'lovchi tashish mln.kishi | 278,4 | 102,9 |
| | | |
| Yo'lovchi aylanmasi mln.kishi.km | 9512,7 | 102,5 |

Xizmatlar statistikasi bo'limi

Buxoro viloyati

Ma'sul: S. Djabbarova

Tel: (65) 223-79-41